



THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE GENDER PROBLEM

Rustamova O. Sh.

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300305>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 09th October 2025

KEYWORDS

gender equality, political ideology, women's rights, social equality, international organizations, democratic society.

ABSTRACT

This article studies the place of the gender problem in state policy and the state system. Based on the analysis of international and national literature, the place of the problem of gender equality in political and ideological regulation is revealed. It is considered that ensuring gender equality is a priority direction of the policy not only of Uzbekistan, but also of countries around the world.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОЙ ПРОБЛЕМЫ

Рустамова О. Ш.

Студентка Самаркандского государственного педагогического института

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300305>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 09th October 2025

KEYWORDS

гендерное равенство, политическая идеология, права женщин, социальное равенство, международные организации, демократическое общество.

ABSTRACT

В статье исследуется место гендерной проблематики в государственной политике и государственном устройстве. На основе анализа международной и отечественной литературы раскрывается место проблемы гендерного равенства в политико-идеологическом регулировании. Рассматривается, что обеспечение гендерного равенства является приоритетным направлением политики не только Узбекистана, но и стран всего мира.

GENDER MUAMMOSINING NAZARIY-METADOLOGIK ASOSLARI

Rustamova O. Sh.

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300305>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 09th October 2025

KEYWORDS

gender tengligi, siyosiy mafkura, ayollar huquqlari, ijtimoiy tenglik, xalqaro tashkilotlar, demokratik jamiyat.

Mazkur maqola gender muammosining davlat siyosati va davlat tizimidagi o'rnini o'rganadi. Xalqaro va milliy adabiyotlar tahlili asosida gender tenglik muammosining siyosiy-mafkuraviy regulatsiyadagi o'rni ochib beriladi. Gender tenglikni ta'minlash, nafaqat, O'zbekistonning balki butun dunyo davlatlari siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda gender muammosining dolzarbligi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Jahon miqyosida gender tenglikning strategik ahamiyati BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG-5) alohida yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalishdagi harakatlar davlatlarning ijtimoiy taraqqiyot darajasini baholovchi muhim indikator sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston misolida ushbu masalaning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi: birinchidan, ayollar va erkaklarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi teng ishtirokini ta'minlash demokratik boshqaruv tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishini ko'rsatadi; ikkinchidan, gender tenglikning psixologik, ijtimoiy va madaniy asoslarini chuqur o'rganish milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarini yanada faollashtiradi; uchinchidan, huquqiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida gender tenglikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, gender muammosining nazariy-metodologik asoslarini o'rganish zamonaviy ilmiy tafakkur uchun nafaqat akademik ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Chunki gender tenglik — bu insonning shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish, eng muhimi, ijtimoiy hayotda adolat va barqarorlikni ta'minlashning poydevori hisoblanadi.

Gender tenglik nima? Gender tenglik- bu jamiyatning barcha sohalarida (siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, oila va boshqalar) erkaklar va ayollarning huquq va imkoniyatlarining teng bo'lishini anglatadi. Gender tenglik ijtimoiy adolat va inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri sifatida jahon miqyosida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda rivojlangan, iqtisodiy, harbiy qudratga ega bo'lgan Fransiya, Ispaniya, AQSH, Germaniya, Malayziya, Xitoy, Yaponiya singari davlatlarda gender muammosi bilan shug'illanuvchi siyosiy institutlar, maxsus vazirliklar faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Fransiya "Ayollar va erkaklar tengligi" vazirligi gender tenglik bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish, qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish va jamiyatda gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqdi. AQSHda "Oq uy gender siyosati kengashi" (White House gender Policy Council), "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish idorasi" (Office on Violence Against Women) gender siyosatini muvofiqlashtiradi, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda gender tenglikni strategik



darajada ta'minlash ustida ishlaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi negizida shakllangan YUNEF, BMT, Ayollar maqomi bo'yicha komissiyasi gender tengligiga amal qilishga asoslangan har bir tashkilotning kamida 50 % ini bitta jins vakillari tashkil etishi bilan baholaydi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu — ijtimoiy tizimlarda erkaklar va ayollarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash darajasidir. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi universal qadriyatlar tizimida gender tenglik konsepsiyasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy barqarorlikning muhim determinanti sifatida qaraladi. Globallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, inson kapitaliga asoslangan iqtisodiy modelning shakllanishi sharoitida gender masalasini chuqur ilmiy tahlil etish zaruriyati yanada ortib bormoqda. Zero, gender tengligiga erishish masalasi insoniyat sivilizatsiyasining demokratik rivojlanish yo'lida erishilgan yutuqlarning muhim mezonlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar kontekstida gender siyosatini tizimli asosda shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, gender tengligi tushunchasini nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar darajasida, balki ijtimoiy ong, siyosiy mafkura, psixologik va madaniy qadriyatlar tizimida ham izchil tahlil qilishni talab etadi. Mazkur jarayonning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash esa gender muammosining mohiyatini kompleks tarzda yoritish, uni ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy elementi sifatida talqin etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda gender tenglik masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Gender muammosi bir qancha huquqiy qonun hujjatlarida o'z o'rnini topgan. Bosh qomusimiz hisoblanmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har ikkala jins egalarining tengligi kafolatlangan. Yurtimizda yil sayin yuqori lavozimlarda ishlovchi ayollar soni ortib bormoqda, bu borada 2019-yilning 2-sentyabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan Harakatlar strategiyasi doirasida bu borada muhim qadam bo'ldi. Gender muammosi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"[8] gi 562-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yildagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi 297-IV-sonli qarori bilan muhofazaga olindi[9]. Mazkur qonun va qarorlarga asosan davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, shuningdek davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik mahsus choralar ko'rilishi nazarda tutildi. O'zbekistonda gender tenglik siyosati huquqiy asoslar bilan bir qatorda amaliy jihatdan ham mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan holda yangi mexanizmlar joriy etilmoqda.



Adabiyotlar tahlili. Gender tushunchasi ilk bor psixologiya va sotsiologiya fanlarida keng qo'llanilgan bo'lsada, bugungi kunda u huquqshunoslik, siyosatshunoslik va falsafada ham keng qo'llanilmoqda. Gender tenglikni ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida butun dunyo olimlarning ilmiy izlanishlariga sabab bo'lgan. S.D.Bovuardning "Ikkinchi jins" asari gender nazariyasining ilk nazariy poydevorini yaratgan. U o'z asarida genderni biologik emas, ijtimoiy va mafkuraviy konstrukt sifatida talqin etadi. Uning mashhur "Ayol tug'ulmaydi, ayol bo'lib yetishadi" degan g'oyasi orqali insonning jinsiy identifikatsiyasi jamiyat tomonidan shakllantirilishini ta'minlaydi. Bu fikr gender tenglik masalasining mafkuraviy regulyatorlar orqali boshqarilishini ko'rsatib beradi. S.D.Bovuard gender tenglikning falsafiy asosini yaratgan bo'lsa, Nensi Freyzer masalaga ijtimoiy-adolat, siyosiy va iqtisodiy tenglik nuqtayi nazaridan yondashadi. Freyzerning eng mashhur nazariy yondashuvi "Tan olinishi" va "Taqsimot" muammosidir. Uning fikricha, gender tenglikni ta'minlash uchun faqat "Ayollarni hurmat qilish" yoki "Ularni tan olish" yetarli emas. Chunki bu faqat mafkuraviy o'zgarishni anglatadi. Bu bilan birga ayollarga iqtisodiy resurslar, siyosiy vakillik va ta'lim imkoniyatlarini ham amalda qayta taqsimlash kerak deb hisoblaydi.

O'zbek olimlarining gender muammosiga yondashuvlari, fikrlari va tadqiqot natijalarini ko'rib chiqish orqali gender tenglik va ayollarning jamiyatdagi o'rni haqida chuqurroq tushuncha olish mumkin. Nodira Qodirovaning "O'zbekistonda gender tenglik masalalari" asari gender tenglikning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qiladi. Asarda ayollarning siyosiy ishtiroki, ta'limda gender muammolari va iqtisodiy faoliyatidagi gender tenglik masalalari ko'rib chiqiladi. Jamshidbek Toshkentovning "Ayollar va siyosat: O'zbekistondagi holat" asari esa ayollarning siyosatdagi o'rni va roli haqida. U O'zbekistondagi ayollarning siyosiy ishtirokini tahlil qiladi va bu jarayonda yuzaga keladigan to'siqlarni ko'rsatadi. Toshkentov, shuningdek, ayollarning siyosiy partiyalardagi ishtirokini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini o'z asarida muhokama qiladi. O'zbek olimlari gender tenglikni faqat qonun darajasida emas, balki mafkura va ta'lim tizimi orqali jamiyat ongiga singdirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Tahlil va natijalar. 2021-yilda Jahon Iqtisodiy forumi tomonidan taqdim etilgan gender tengligi indeksida O'zbekiston 156 ta mamlakat orasida 100 o'rinda joylashgan[12]. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda gender tengligi masalalariga e'tibor berilayotganini lekin hali ham ko'p ishlar qilish zarurligini ko'rsatadi. So'nngi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, gender tengligi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham negizi hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa agar ular aqliy faoliyat bilan band bo'lsa, bir necha barobar yuqoriroq natija ko'rsatar ekan. Qolaversa gender tenglik- bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi indikator. Demak, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish, yurtimizga tobora ko'proq investitsiyalar jalb qilish uchun ham shu indikatorga yetarlicha ahamiyat berishimiz zarur. Bu borada doimiy, ko'lamdor va salmoqli natijalarga erishish uchun esa umumiy reja ko'rinishidagi hujjat, oddiy til bilan aytganda, dasturul amal kerak. Mamlakatimizda aynan shu hujjat 2020-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida gender



tenglikka erishish loyihasi ishlab chiqildi. Bu hujjat mana shunday dasturul amal vazifasini bajarmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha tizimli o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda, ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo'lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Mamlakatimizda tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqсад bo'lmish "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" yo'nalishidan salmoqli natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimiga xotin-qizlarni tayinlash amalyoti kengayadi. Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi.

Psixalogik jihatdan gender tafovutlarning ildizi bolalik davridan boshlab shakllanadi. Oiladagi tarbiya, ota-onaning bola bilan muloqoti, maktabdagi ta'lim muhitida berilayotgan ijtimoiy signallar bola ongida jinsiy rolga oid stereotiplarni shakllantiradi. Masalan, o'g'il bolaga liderlik, qaror qabul qilish va tashabbuskorlik fazilatlarini uqtirilsa, qiz bolalar ko'proq itoatkorlik, sabr-toqat va mehribonlik fazilatlarini bilan bog'lanadi. Natijada, jamiyatda jinsiy rollarning an'anaviy taqsimoti mustahkamlanadi. Ijtimoiy psixalogiyada gender muammosining yana bir muhim jihati bu - ijtimoiy ta'sir va kommunikatsiyadir. Ommaviy axbarot vositalari, reklama, kino va internet makonida yaratilayotgan obrazlar orqali gender rollar "Qayta ishlab chiqiladi". Ayollar ko'proq estetik yoki oilaviy rol bilan bog'lab tasvirlansa, erkaklar asosan kuch va rahbarlik, muvaffaqiyat timsoli sifatida aks ettiriladi. Shu tarzda, ommaviy ma'daniyat gender tafovutlarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Psixalogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender tengsizlikning mavjudligi shaxsning o'zini-o'zi baholash darajasiga, ijtimoiy faolligiga, motivatsiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayollarda past o'zini baholash, ijtimoiy tashabbuslardan chekinish holatlari ko'proq kuzatilsa, erkaklar ortiqcha raqobatbardoshlik yoki hissiy cheklovlar kuzatiladi. Demak, gender tengsizlik nafaqat ijtimoiy balki psixalogik nosog'lom muhitni ham shakllantiradi.

Metadologik jihatdan gender muammosini o'rganishda tizimli, qiyosiy, sotsiokultural, diskursiv yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Tizimli yondashuv gender



munosabatlarini jamiyatning butun ijtimoiy tuzilmasiga bog'liq holda o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, gender tengsizlik faqat ma'lum bir sohada yuzaga kelmaydi, balki barcha ijtimoiy tizimlarning o'zaro natijasida shakllanadi. Masalan, ayollarning mehnat bozoridagi faolligi ta'limdagi gender farqlari, madaniy stereotiplar va huquqiy me'yorlarning o'zaro uyg'unlashuvi bilan belgilanadi. Shu sababli tizimli yondashuv gender tenglikni ta'minlashni jamiyatning har bir instituti- oila, ta'lim, siyosat va ma'daniyat sohalari orqali tahlil qiladi. Qiyosiy yondashuv gender siyosatini turli mamlakatlar, tarixiy bosqichlar va ma'daniy muhitlarda taqqoslab o'rganishga imkon beradi. Bu yondashuv yordamida gender tenglikni ta'minlashda qaysi institutlar samarali ishlayotgani, qaysi yondashuvlar milliy xususiyatlarga mos ekanligi aniqlanadi. Sotsiokultural yondashuv esa gender rollari va tenglik muammosini ma'daniyat, an'ana, diniy qarashlar va milliy qadriyatlar asosida tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, gender munosabatlari faqat qonun yoki siyosat orqali emas, balki jamiyatning ma'daniy-milliy ongida shakllanadi.

O'zbekiston misolida ayollar va erkaklarning ijtimoiy o'rni tarixiy va ma'daniy an'analarga chiqar singing ketgan. Shu bois, gender siyosatini ilgari surishda mahallaye qadriyatlar bilan uyg'unlik muhim metodologik shart hisoblanadi. Bu yondashuv gender tenglik g'oyasini milliy identitetni saqlagan holda ilgari surish imkonini beradi. Oxirgi yondashuv bu diskursiv yondashuv hisoblanib, gender muammosini til, nutq, siyosiy bayonotlar, OAV va ta'lim tizimidagi tasvirlar orqali shakllanadigan ijtimoiy ma'no sifatida o'rganadi. Bu metod gender tengsizlikning "ko'rinmas" maxanizmlarini ochib beradi- ya'ni erkak va ayol haqidagi stereotiplar qanday qilib til va nutq orqali mustahkamlanayotganini tahlil qiladi. Masalan, ommaviy axbarot vositalarida ayollarni faqat "uy Bekasi" va "ona" sifatida tasvirlash jamiyat ongida gender rolini kamaytiradi. Shu bois, diskursiv yondashuv gender tengligini ta'minlashda axborot siyosati, ta'lim mazmuni va ommaviy ma'daniyatni qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi. Gender muammosini o'rganishda bu to'rtta uslubni qo'llash ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi. Chunki gender tengsizlik ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Integratsiyalashgan metodologik yondashuv gender siyosatini har tomonlama asoslashga, uni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga hamda ilmiy tahlil natijasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender muammosini nazariy-metadologik jihatdan tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bu masala insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida ijtimoiy ong, ma'daniyat, siyosat va huquq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Gender tengligiga erishish- nafaqat ijtimoiy adolat mezoni, balki demokratik jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, gender muammosini o'rganishda tizimli, qiyosiy, sotsiokultural, diskursiv yondashuvlar kompleks qo'llanilgandagina, uning mohiyati to'liq ochib beriladi. Mazkur yondashuvlar gender tenglikni faqat huquqiy yoki siyosiy hodisa sifatida emas, balki shaxs psixologiyasi, ijtimoiy muloqot, ma'daniy qadriyatlar va tarbiya tizimi sifatida tushunishga imkon beradi. Yurtimizda gender tengligini ta'minlash yo'lida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, parlament va davlat institutlarining faoliyati bu boradagi siyosiy irodaning mavjudligini tasdiqlaydi. Ammo mazkur



siyosatning to'liq samarasini ta'minlash uchun gender masalasiga psixologik, ma'naviy va ta'limiy jihatdan yondashish ham zarurdir. Umuman olganda, gender muammosining nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish, unga tizimli yondashuvni joriy etish — jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, teng imkoniyatlar va inson qadr-qimmatiga hurmatni ta'minlashning muhim garovidir. Shu ma'noda, gender masalasi bugungi O'zbekiston modernizatsiya jarayonlarida ham dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Mavzu yuzasidan quyidagi takliflarimni keltirib o'taman:

birinchidan, ta'lim tizimida gender madaniyatini shakllantirish – ta'lim dasturlariga gender masalalariga oid maxsus fanlar kiritish, pedagoglar va talabalar orasida gender tenglik bo'yicha treninglar o'tkazish;

ikkinchidan, OAV orqali ijobiy gender tasvirlarini kuchaytirish – ayollarni faqat an'anaviy rollarda emas, balki ijtimoiy faol, rahbar va mutaxassis sifatida ko'rsatadigan loyihalarni targ'ib qilish;

uchinchidan, huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash – gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashish bo'yicha nazorat tizimini takomillashtirish, xalqaro me'yorlarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish;

to'rtinchidan, siyosiy va ijtimoiy institutlar hamkorligini kengaytirish – Gender tenglik komissiyasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, NNT va ilmiy markazlar o'rtasida ilmiy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

beshinchidan, ijtimoiy-psixologik yondashuvni kuchaytirish – oilalarda o'zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish, gender psixologiyasi bo'yicha seminar va treninglarni tizimli o'tkazish;

oltinchidan, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalarni o'rganish – rivojlangan mamlakatlarning gender siyosati modellarini tahlil qilib, O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, N. (2021). O'zbekiston jamiyatida gender madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari. — Toshkent: Fan va taraqqiyot jurnali, №3.
2. Connell, R. W. (2005). Masculinities. — Cambridge: Polity Press.
3. Danielle B. Goldberg, equal representation of women through the lens of leadership and organizational culture (2015), <http://www.unwomen.org/-/media/headquarters/attachments/sections/library/publications/> (Bu yerda shu narsa ta'kidlanadiki, "Faqat barcha darajadagi lavozimlarda ayollarning teng vakilligi ta'minlansagina, gender tengligi tashkilot madaniyatiga to'liq singdirilgan va ayollarning teng ishtiroki isbotlangan bo'lishi mumkin").
4. Fraser, N. (2008). Scales of Justice: Reimagining Political Space in a Globalizing World. — New York: Columbia University Press.
5. Karimova, G. (2023). Huquqshunoslikda gender tengligi konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari. — O'zbekiston huquqshunosligi axborotnomasi, №2
6. Jo'rayev, M. (2020). Gender tengligi va ijtimoiy adolat masalalari: nazariy tahlil. — Toshkent: Ijtimoiy fikr markazi nashriyoti.



7. Sharipova, M. (2022). O'zbekiston siyosiy tizimida gender tenglik siyosatini takomillashtirish yo'llari. — Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy axborotnomasi, №4.
8. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli Qonuni. [<https://lex.uz/docs/-4494849>]
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yildagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" gi 297-IV-sonli qarori. [<https://lex.uz/docs/-5466673>]
10. Гусева, А. В. (2018). Гендерные исследования: теоретико-методологические основы. — Москва: Наука
11. U.N. Charter arts. 55-56. [<https://legal.un.org/repertory/art55.shtml>]
12. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlari. <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/ijtimoiy>
13. <https://www.healthline.com/health/different-genders>
14. <https://en.wikipedia.org/wiki/File:MURDER-SCALE-4-2019>